

## BOSH MIYA ICHKI BOSIMINING OSHISHI: SABABLARI, TASHHISI VA DAVOLASH USULLARI

**Orziyeva Kumushxon Ixtiyor qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti, Tibbiyot yo'nalishi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bosh miya ichki bosimi oshishining etiologiyasi, klinik tashxis qo'yish usullari hamda zamonaviy davolash metodlari yoritilgan. Bosh miya ichki bosimining oshishi ko'plab nevrologik va umumiy somatik kasalliklar bilan bog'liq bo'lib, o'z vaqtida tashxis va davolash hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Maqola tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, nevrologlar va amaliy shifokorlar uchun mo'ljallangan.*

**Kalit so'zlar:** *Intrakranial gipertenziya, bosh miya ichki bosimi, likvor, diagnostika, MRT, KT, UTT, simptomatik davo.*

### KIRISH

Inson salomatligi qadimdan buyuk allomalar diqqat markazida bo'lган. Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida: "Kasallikni davolashda eng avvalo uning sababini aniqlash va yo'qotish lozim" deya ta'kidlagan. Shu tamoyil zamonaviy tibbiyotda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Bosh miya ichki bosimining oshishi (intrakranial gipertenziya) ko'plab kasalliklarning oqibati yoki mustaqil sindrom sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Maqolada ushbu patologiyaning etiologiyasi, klinik tashhisini va davolash tamoyillari haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu mavzu, ayniqsa, tibbiyot sohasida tahsil olayotgan talabalar va nevrologiya, neyroquirgiya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun ahamiyatlidir.

### ASOSIY QISM

Bosh miya ichki bosimining oshish sabablari

Bosh miya ichki bosimining oshishiga turli omillar sabab bo'lishi mumkin. Etiologik omillar orasida quyidagilar alohida o'rinn tutadi:

- Orqa miya suyuqligining (likvor) aylanishi va so'rilishining buzilishi;
- Miya qorinchalarining kengayishi yoki torayishi;
- Miya o'smalari va shishlar;
- Orqa miya kanalidagi o'zgarishlar;
- Miya pardalari orasidagi bo'shliqlarning patologik holatlari.

Bosh miya ichki bosimini aniqlash usullari

Intrakranial bosimni to'g'ridan-to'g'ri o'lchash murakkab va ehtiyyotkorlikni talab qiladi. Buning uchun to'g'ridan-to'g'ri qorinchalararo punksiyalar o'tkaziladi. Boshqa, xavfsiz instrumental diagnostika usullari quyidagilardir:

- Ultratovush tekshiruvi (UTT);
- Magnit-rezonans tomografiyasi (MRT);

- Kompyuter tomografiyasi (KT).

Bosh miya ichki bosimini davolash usullari

Davolash etiologik sabablarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Konservativ davolash:

- Diuretiklar yordamida likvor bosimini kamaytirish;

- Venoz qon aylanishini yaxshilovchi vositalar qo‘llash;

- Steroid yallig‘lanishga qarshi preparatlarni infektsion yallig‘lanishda qo‘llash.

Operativ davolash:

- Likvor oqimini normallashtirish uchun shuntlash operatsiyalari;

- O’smalarni va patologik suyuqlik to‘plangan joylarni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash.

### XULOSA

Bosh miya ichki bosimining oshishi ko‘plab jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun uning ilk belgilari paydo bo‘lishi bilan malakali mutaxassisiga murojaat qilish zarur. Vaqtida o‘tkazilgan to‘g‘ri diagnostika va kompleks davolash choralarini bemorning hayot sifatini saqlab qolish va asoratlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avitsenna.uz: “Bosh miya ichki bosimi oshishi (Cherepnoy davleniya) sabablari, aniqlash va davolash” maqolasi.

2. Ibn Sino. “Tib qonunlari” asari.

3. Zamonaviy nevrologiya va neyroxirurgiya bo‘yicha ilmiy maqolalar va o‘quv qo‘llanmalar.